

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida soliq maslahatining ahamiyati

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Mustaqil tadqiqotchi

Yakubov Otabek Sadullaevich

Annotatsiya: Soliq maslahati instituti soliq siyosati, ma'muriyatçılığı va qonunchılığının ishlab chiqishda muhim rol o'yaydigan muhim institutdir. Ushbu izohda adabiyotlar asosida soliq maslahati institutining rivojlanish istiqbolları ko'rib chiqiladi. Adabiyotlarda soliq maslahati institutining soliq qonunchılığını ixtiyoriy bajarishga ko'maklashish, soliq to'lovchilar bilimini oshirish, soliq to'lovchilarga texnik yordam ko'rsatish va soliq tafovutini kamaytirishdagi ahamiyati ta'kidlangan. Adabiyotda soliq maslahati instituti oldida turgan turli muammolar, jumladan moliyalashtirishning etarli emasligi, mustaqillikning yo'qligi va imkoniyatlari cheklanganligi ham aniqlangan. Soliq maslahati institutiga yuqori sifatli soliq maslahati xizmatlarini ko'rsatish samaradorligini oshirish va zamonaviy texnologiyalar bilan ta'minlanishi tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: yer, yer solig'i, ko'chmas mult, yakka tartibdagi tadbirkor, faoliyat, ijtimoiy soliq, "Soliq" mobil ilovasi, nafaqa, pensiya, ish staji, mahalliy byudjet, mahalliy byudjet daromadlari, mahalliy hokimiyat organlari, mahalliy soliqlar, soliq hisoboti, soliq tushumlari , soliq imtiyozlari.

Kirish: O'zbekistonda soliq maslahati institutini rivojlantirish istiqbollarini o'rGANADI, sohaning hozirgi holatini tahlil qiladi, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, samaradorligini oshirish bo'yicha strategiyalarni taklif qiladi. Tadqiqot siyosatchilar, soliq mutaxassislari va O'zbekistonda soliq maslahati sohasini rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan boshqa manfaatdor tomonlar uchun tavsiyalar berishdan iborat.

Soliq qonunlari va qoidalari tobora murakkablashib bormoqda va tez-tez

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

o'zgarib turadi. Natijada, korxonalar va jismoniy shaxslar ushbu murakkabliklarni bartaraf etish va muvofiqlikni ta'minlash uchun mutaxassis ko'rsatmalariga muhtoj. Bu soliq konsalting xizmatlariga talabni yuzaga keltiradi. Globallashuv va transchegaraviy operatsiyalar: Xalqaro savdo va investitsiyalarning kengayishi bilan kompaniyalar ko'pincha murakkab soliq oqibatlarini o'z ichiga olgan transchegaraviy operatsiyalarni amalga oshiradilar. Soliq maslahatchilari turli yurisdiktsiyalarda korxonalarga soliq majburiyatlarini tushunish va optimallashtirishda muhim rol o'yнaydi. Avtomatlashtirish, sun'iy intellekt va ma'lumotlar tahlili kabi ilg'or texnologiyalarning rivojlanishi soliq maslahati landshaftini o'zgartirmoqda.

Jahon amaliyotidan ma'lumki, ijtimoiy rivojlanish qonuniyatlarini o'rGANADIGAN ilmiy fanlar sohasi va turli darajadagi xo'jalik munosabatlarining xech biri soliq tizimidagi munosabatlar darajasidagidek ahamiyatli, ziddiyatli va ko'p funksional emasdir.

Soliqlar, dastlabki yozma manbalar paydo bo'lgan davrdan to hozirgi kunga qadar, soliq yig'uvchilar (soliq organlari) va soliq to'lash majburiyati ega bo'lgan shaxslar o'rtasida keskin munozaralar sohasi bo'lib qolmoqda. Soliqlar va soliq munosabatlari paydo bo'libdiki, mazkur tizim, unda ro'y berayotgan o'zgarishlar sub'ektlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.

Soliq munosabatlarini har tomonlama o'rGANISH va tegishli xulosalar chiqarish, optimal soliqqa tortish tizimini tashkil etishning asosi bo'lib hisoblanadi. Ularni boshqarishda soliq munosabatlarining eng ustivor,adolatlilik tamoyiliga amal qilinishi natijasida davlat xazinasi daromadlari ko'payishi, soliq to'lovchilarning davlatga nisbatan bo'lgan e'tirozlari pasayishiga erishilgan.

Jamiyatda ijtimoiy tuzum rivojlanishi hamda takomillashib borishi soliq siyosatida ham o'zgarishlar bo'lishiga sabab bo'lgan, ya'ni soliq munosabatlari zamonaviy mazmun-mohiyat kasb eta boshlagan.

Zamonaviy soliq tizimining barpo etilishi, soliq nazoratining takomillashuvi, va soliqlarning to'lanishida hatolarga yo'l qo'yish eh'timolining oshishi yangi soliq maslahatchisi kasbining paydo bo'lishiga sabab bo'ldi.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

O‘zgaruvchan soliq siyosati davrida korxonalardagi soliqlar bo‘yicha murakkab savollarga javob topa bilish va unda soliq tavakkalchiligining ishonchli boshqaruvi tizimini barpo etish uchun soliq maslahatchisi uchun iqtisodiy va huquqiy bilimlarning o‘zi kamlik qiladi. Soliq maslahatchisi tahlil qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, biznesni yaxshi tushinishi va soliq tavakkalchiligini modellashtira olishi hamda uni boshqariladigan qilib tuza olishi kerak.

Maslahatchilik ob’ektiv tarzda (vrach va advokatga o‘xshab) ishonchga asoslangan bo‘lib, bu xizmatlar xizmatlarning shunday bir klassik misolidirki, ularni faqat ishonch va o‘zaro tushungan holda amalga oshirish mumkin.

Soliq maslahatchisi ihtiyyoriy vaqtda soliqchiga nima uchun soliq to‘lovchi shartnomasining aynan shu modelini tanlaganligini biznes-reja, texnik-iqtisodiy asoslar, ekspertlarning hisob-kitoblari va mutaxassislarning hulosalari asosida tushuntirib bera olishi kerak. U tekshirishlarda qatnashishi, tekshirish natijasida tuzilgan aktlarga e’tiroz tayorlashi, sud va soliq organlarida soliq to‘lovchining manfaatlarini himoya qilishi lozim.

Soliq maslahati xizmati investitsiyalarni jalb qilinishida ham katta ahamiyatga ega. Chunki, soliq maslahatchisi tomonidan ko‘rsatilayotgan yordam investorlarning soliq qonunchiligiga rioya qilishlari, to‘lanayotgan soliqlar va yig‘imlarning optimizatsiya qilishini, qo‘srimcha choralar orqali ularning mulkiy huquqlari va manfaatlarining ximoya qilinishini ta’minlaydi.

Soliq maslahati instituti soliq maslahatchisi vakolat burchlarining ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi – bu avvalo soliq to‘lovchilarga soliqlarning to‘g‘ri to‘lanishiga ko‘maklashishdir. Soliq maslahatchisi – huddi advokat singari fuqarolik jamiyatining bir qismi bo‘lib hisoblanadi, shuning uchun ham u soliq to‘lovchining himoyachisidir.

Lekin, o‘z vakolatlarini amalga oshirish doirasida davlat soliq xizmati organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari va boshqa davlat organlari tomonidan soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini tushuntirishlari, soliq solish masalalari bo‘yicha advokatlar tomonidan ko‘rsatiladigan yuridik yordam, auditorlik tashkilotlari va boshka tashkilotlarning soliq solish bo‘yicha konsalting

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

hamda boshka xizmatlari soliq maslahati hisoblanmaydi¹.

Soliq munosabatlarini tartibga soluvchi qonun va qonun osti hujjatlarida soliq targ‘ibotining huquqiy kafolatlari asoslab berilgan. Hususan, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida soliq organlaridan tegishli axborotlarni olish soliq to‘lovchilarining huquqlari sifatida aks ettirilgan bo‘lsa, “Davlat soliq xizmati to‘g‘risida”gi Qonunda soliq to‘lovchilarga ko‘rsatiladigan axborot-maslahat xizmatlari sohasini kengaytirish davlat soliq xizmati organlarining asosiy vazifalaridan biri sifatida belgilangan.

Bu kabi huquqiy kafolatlarsiq madaniyatini yanada yuksaltirish, soliq to‘lovchilarining bilim saviyasini oshirish, pirovardida soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lashga asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Masalan rivojlangan mamlakatlar, jumladan, Yaponiya, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya va Germaniya singari davlatlarning tajribasi shuni ko‘rsatmoqdaki, soliq madaniyatining yuqori bo‘lishi jamoatchilik munosabatlarining (Public relations) keng shakllanganligi bilan bevosita bog‘liqdir.

Soliq to‘lovchilarga soliqlarning mohiyati qanchalik tushunarli va aniq-ravshan bo‘lsa, xususan, ular o‘zлari to‘layotgan soliqlarning ijtimoiy himoyani ta’minalash, maorif, sog‘liqni saqlash, mudofaa, aholining tinch va farovon hayot kechirishi hamda shu kabi davlatning bir qator ijtimoiy vazifalarini hal etish uchun sarflanayotganligini chuqurroq anglab yetsalar, soliqlarni ixtiyoriy ravishda to‘lash samaradorligi shunchalik ortadi. Ushbu yo‘nalishdagi ishlarni amalga oshirishda esa, soliq maslahti sohasining ham o‘rni beqiyosdir.

Soliq maslahati xizmatining vujudga kelishini o‘rganishdan oldin, o‘zi umuman professional maslahat xizmatining vujudga kelishini o‘rganish lozim bo‘ladi.

Fris Stil fikricha “...maslahatchi bir yoki bir nechta masalalar bo‘yicha faqatgina maslahat yoki yordam beradi. Ammo mazkur muammoni bevosita o‘zi bajarmaydi”².

¹ Ўзбекистон Республикасининг “Солик маслаҳати тўғрисида”ги Қонуннинг 3-моддаси. ЎРҚ-55-сон 21 сентябр 2006 йил.

² Скотт А. Как управлять переменами: Change Management глазами специалиста, Harvard Business Review 2003, 108-109 с.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Larri Greyner va Robert Metsger ta'kidlashicha, "... boshqaruv maslahati bu ma'lum bir bilim va ko'nikmaga ega maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan mustaqil shaxslar tomonidan nafaqat maslahat balki amaliy yordam ko'rsatish bo'yicha xizmatlar yig'indisi tushuniladi"³.

Maslahat hizmatlari sanoat inqilobi davrida,, ya'ni fabrikalar qurilishi va ularning institutsional va o'zgarishlari boshlangan davrda paydo bo'lgan. Maslahat xizmatlari korxonalarning rivojlanish bosqichida muhim ahamiyat kasb etgan.

Boshqacha qilib aytganda korxonaning rivojlanish tendensiyasi rahbarni qoniqtirmaganda, maslahat xizmati yordamida kutilgan natijalarga erishilgan.

Maslahat so'zi lotincha "consultantis" – maslahat berish va ma'lumot almashish degan ma'noni bildiradi.

Soliq maslahati – bir martalik xizmat yoki xizmat ko'rsatish ko'rsatish jarayoni hisoblanadi.

Soliq maslahati soliq maslahatchilar tashkilotining yuridik va jismoniy shaxslarga (bundan buyon matnda mijozga (ishonch bildiruvchiga) deb yuritiladi) shartnoma asosida soliq maslahati bo'yicha xizmatlar ko'rsatish borasidagi faoliyatidir.⁴

Soliq maslahati xizmati bugungi kunda bozor infrastrukturasining zarur elementi, shuningdek soliqqa tortish bo'yicha aloqalarning ajralmas bo'lagi hisoblanadi.

D.G.Chernik ta'rifiga ko'ra, "soliq maslahati-mustaqlil faoliyat turi bo'lib, audit yoki yuridik xizmatga o'xshasada, mohiyati jihatidan hamda ko'rsatadigan hizmati bo'yicha umuman boshqa xizmat turi hisoblanadi. Soliq maslahati hizmati shakli jihatidan yuridik mazmunan iqtisodiy bo'lib, boshqa maslahat xizmatlaridan hamda maxsus tayyorgarlik talab etadigan xizmatlardan farq qiluvchi mustaqil tadbirkorlik faoliyatining bir turidir"⁵.

N.N.Bashkirova va Ye.B.Sugrobova fikrlariga ko'ra esa, "soliq maslahati – bu soliq to'lovchilarga, soliq agentlariga va boshqa to'lovlar bo'yicha majburiyati

³ Грейнер Ларри Е. Схемы организационных изменений Harvard Business Review, май-июн 2010, 119-120 с.

⁴ Ўзбекистон Республикаси "Солиқ маслаҳати" тўғрисидаги ЎРҚ-55-сонли Қонуни. 2006 йил 21 сентябр. 3-модда.

⁵ "Российская Бизнес-газета" № 581 2006 йил 21 ноябр. 14-бет

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

bor shaxslarga soliq qonunchiligiga mos ravishda soliqlarni to‘g’ri hisoblash bo‘yicha pullik xizmat ko‘rsatish turi hisoblanadi”⁶.

Soliq maslahati tushunchalarini iqtisodiy mohiyatini chuqurroq anglash uchun ham bu borada izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlar qarashlari haqida to‘xtalib o‘tish maqsadga muvofiq.

Rossiyalik iqtisodchi olimlardan A.I.Solomanin, F.A.Gudkov va T.N.Gužinalar soliq maslahati faoliyati borasida ilmiy izlanishlar olib borishgan va o‘z ilmiy ishlarida soliq mslahatining iqtisodiy mohiyatini ochib berishga harakat qilgan va asosiy e’tiborni soliq to‘lovchilarga qonunchilikda belgilangan soliqlar va ularga tenglashtirilgan to‘lovlarni hisoblash, to‘lash, soliq hisobotlari shakillarini soliq idoralariga taqdim etish, shuningdek soliq qonunchiligiga asosan soliq munosabatlarida qatnashuvchi tomonlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish masalalari bo‘yicha maslahat, axborot va vakillik xizmatlari ko‘rsatish faoliyatiga qaratgan. Ular tomonidan soliq maslahati tushunchasining izohlanishini, tushunchalarining afzallikkleri va kamchiliklarini quyidagi jadvalda yaqqolroq qo‘rishimiz mumkin.

Xulosa va takliflar.

Soliq bo‘yicha maslahatchilarni mijozlarga samarali maslahatlar berish uchun zarur ko‘nikma va bilimlar bilan ta’minlovchi yuqori malakali treninglar o‘tkazish muhim ahamiyatga ega. Aholining soliq maslahati xizmatlarining ahamiyati haqida xabardorligini oshirish ushbu xizmatlarga bo‘lgan talabni oshirishga yordam beradi va ko‘proq jismoniy shaxslar va korxonalarini professional maslahat olishga undashi mumkin. Texnologiyalardan foydalanish soliq maslahati xizmatlarining samaradorligi va samaradorligini oshirishga yordam beradi. Soliq dasturiy ta’minoti, ma'lumotlarni tahlil qilish vositalari va bulutli hisoblash kabi texnologiyalarga sarmoya kiritish soliq maslahatchilariga mijozlarga aniqroq va o‘z vaqtida maslahat berishga yordam beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati.

“The growth of complexity in tax systems has created a need for tax advice to help

⁶ Основы налогового консультирование. Под. ред. проф.Л.И. Гончаренко – М.: Магистр, 2010. –8 с.
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

taxpayers navigate the tax landscape” (Smith, 2015).

“The effectiveness of tax advice depends on the quality of the adviser's expertise and the level of trust and communication with the client” (Jones, 2016).